

TONG Yulduzi

№31 (66364)
2002 yil
29 iyul,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarib boshlagan.

Yaqinda «Ekosan» xalqaro jamg'armasining suv, iqlim va Amudaryo havzasi muammolari bo'yicha Filodelfiya (AQSH) uchrashuvi yakuniga bag'ishlab matbuot anjumani o'tkazildi.

joyidan boshlanib, Turgay pasttekisligi orqali Sirdaryogacha keladi va uni kesib o'tib, Amudaryoga quyiladi. Kanalning uzunligi 2550 kilometrni, eni 200 metrni, chuqurligi 16 metrni tashkil etadi va bu kanaldan bor - yo'g'i


yilga iqlimning issiq kelishi sababli o'z o'zanidan toshib, Sibirning ko'pgina joylarida aholini qiynayotgan toshqinlarning oldi olinsa, ikkinchi tomondan shu kanal orqali kelayotgan suv o'z yo'lida ko'pgina qaqrab yotgan

OROL MUAMMOSI YECHIMIDA YANGI LOYIHA

Ma'lumki, Orol va Orolbo'yidagi iqlim o'zgarishi, tuproqning sho'rlanishi, ichimlik va sug'orishga mo'ljallangan suv tarkibining yomonlashuvi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan og'ir ekologik holat jahon jamoatchiligi e'tiborining diqqat markazida turibdi.

Uchrashuvda Sibir daryolaridan biri, ya'ni Ob daryosidan Amudaryogacha bo'lgan masofada kanal o'tkazish loyihasi ko'rib chiqildi. Bu loyihaga binoan quriladigan kanal Ob daryosining Xanti - Manskiy shahriga yaqin

Ob daryosining 7 foiz suvi Amudaryoga kelib quyilib, Orol dengiziga o'tadi. Kanal



qurilishi uchun hozirgi kunda barcha kerakli texnikalar mavjud bo'lib, sarflanadigan mablag' masalasi o'z yechimini topish darajasida. Bu loyihaga ko'ra bir tomondan yildan -




yerlarni ham obod bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga O'zbekiston, Turkmaniston, Afg'oniston yerlarini suv bilan ta'minlaydi. Yildan-yilga sezilarli darajada isiyotgan iqlimning ham normallashtirishiga olib kelishi mumkin ekan. Hozirgi kunda bu loyiha Rossiya Davlati rahbarlari va olimlari tomonidan ham o'rganilmoqda hamda tez kunlarda O'zbekiston va chet ellik qatnashchilar hamkorligida ijobiy hal qilinishi ko'zda tutilmoqda.

Temur RO'ZIMATOV.

U m r n i
«Oqar daryo»

deydilar,
kunlar, haftalar o'tib bormoqda. «Kecha va kunduz»ning o'tishi ham xuddi shu tarzda. Yangi kun oldidan «O'tgan kunlar»imni bir sarhisob qildim. Maktabdan qaytayotib yo'l yoqasida savlat to'kib turgan «Chinor»ga qarab, beixtiyor xayolga cho'mdim. Chinorlarni

KITOBBLAR



ming yil yashaydi deyishadi. Ular «Yillar armoni»yu quvonchli kunlarni shivirlab kuylayotgandek. Uzoq-

yaqindan «Saharxez qushlar» ovozi eshitiladi.


«Quyosh qoraymas»dan zerika boshladim. Atrof «Jimjitlik». Kechki ovqatdan keyin «Yulduzli tunlar»ga boqib, tag'in xayol surdim. Shunda beixtiyor «Ot kishnagan oqshom»dagi voqealar yodimga tushdi.

«Shum bola» edik-da o'shanda. Endi sho'xliklar bir qadar ortda qoldi. Qaniydi «Quyoshi botmaydigan yurt»ga xizmat qilsam. «Orzuga ayb yo'q» deydilar. Ahdim «Diyonat»li inson bo'lib yetishish.

Jasurbek UMRZOQOV,
Samarqand viloyati,
Narpay tumani, Oqtosh shahridagi
30 - maktabning
8 - sinfo'quvchisi.

Bo'sh vaqtim - xush vaqtim

Zangiota qishlog'ida joylashgan maktab hovlisidan o'tib borar ekanman, tashqariga taralayotgan dilrabo kuy va qo'shiq e'tiborimni tortdi. Qiziqishim ortib, ohistagina ichkariga kirdim. O'quvchilar quvnoq qo'shiqlarida davom etishar edi. Men ham ularning qo'shiqlarini oxirigacha tingladimda, so'ngra san'atsevar bolalar va albatta ularning ustozlari bilan qiziqdim.



- Biz qishlog'imizdagi o'tdi.

iste'dodli o'g'il-qizlardan

- Bayram tadbirlarini

"SHABBODA" VA "MARVARID" NING BOLALARI

iborat «Shabboda» hamda «Marvarid» deb nomlangan guruh o'tkazishimizda asosan, Zangiota



ota Norxo'jayev hamda Zangiota madaniyat va ma'rifat uyi rahbari Xabibulla aka Hamidullayevlarning hissalar katta bo'lmoqda,-deydi Ravshan Qosimov. - Ular bizga ham moddiy, ham ma'naviy yordam berishmoqda.

Yaqinda qariyalarni qadrlash yiliga bag'ishlangan bayram tadbiri o'tkazdik.

Bayramga taklif etilgan otaxon onaxonlarning duolari guruh a'zolarini yanada ilhomlantirib yubordi.

Zangiotalik san'atsevar bolajonlardan kelajakda haqiqiy yulduzlar yetishib chiqishiga ishonamiz.

tuzdik,- deydi «Marvarid» guruhi rahbari Abduvoris Aliyev. - «Shabboda» guruhiga Ravshan Qosimov rahbarlik qiladi. Bu guruhlar bir-biridan sira bo'sh kelishmayapti.

Bolalar tuman, viloyat ko'rik-tanlovlarida g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

Ayni ta'til kunlarida esa bog'chalar, klublar va albatta oromgohlarda bo'lib, o'z konsert nomerlari bilan atrofdagilarga quvonch ulashishyapti.

Ular o'z repertuarlaridagi Vatan, Ona, Tinchlik haqidagi qo'shiqlarni zo'r mahorat bilan ijro etishadi.

Yaqinda «Bolalar kulgusi, kelajakka ishonch» shiori ostida bayram bo'lib



shirkat xo'jaligi raisi Inomiddin aka Muhiddinov, qishloq oqsoqoli Solixo'ja

Feruza QOSIMOVA,
Toshkent viloyati,
Zangiota qishlog'i.

ANDIJONDA PAXTA OCHILDI

Paxta O'zbekistonimizning asosiy boyligi hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqimiz uni sevib, «Oq oltin» deb ataydi. Paxtakorlik esa xalqimizning asl kasbidir.

O'zbekistonda paxta ko'p yillardan beri yetishtiriladi. Mirishkor dehqonlarimiz olimlar bilan birgalikda yangi paxta navlarini yaratayaptilar.

«Oq oltin»imizga chet ellarda ham talab katta.

Aytishlaricha, O'zbekiston paxtasi 1996 yilda dunyo miqyosida uchinchi o'rinni egallagan.


Paxtadan tayyorlangan mahsulotlar ham xaridorgir.

Yaqinda gazetada o'qib qoldim. Andijonda paxta ochilibdi.

Ha, andijonliklar ertangi paxta yetishtirishda ancha ilgari ketishgani bizga ham sir emas. Ayniqsa, Asaka tumanidagi paxtakorlar yillik rejani avgust oyidayoq bajarib, Mustaqilligimizning o'n bir yilligiga ajoyib s o v g ' a tayyorlashmoqchi.

Andijonlik dehqonlarga qarab, «hormang» degimiz keladi.

Dildora XOLMUHAMMEDOVA,
Poytaxtimizdagi Shotursun
G'ulomov nomli
114- maktab o'quvchisi.



Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Ikkinchidan, turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi — barcha Yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish.

Bu — ko'ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga amalda rioya qilgan holda, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash demakdir.

Uchinchidan, ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish. Toki, bu din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma'naviy hayotimizning ham asosi, muxtasar aytganda, Alloh doimo qalbimizda, yuragimizda ekani yurtdoshlarimiz ongiga singib borsin.

Shu ma'noda, buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshbandning «Diling — Allohda, qo'ling — mehnatda bo'lsin» degan hikmati biz uchun muhim hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi.

To'rtinchidan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish.

Bu — davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol kadrlarga bog'liq ekanini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish demakdir.

Beshinchidan, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'alarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish.

Bu — ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qat'iy nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, «Shu aziz Vatan — barchamizniki» g'oyasining amalga oshirishini ta'minlash demakdir.

(Davomi bor).

KASB TANLASHDA ADASHMANG

Mustaqillik O'zbekistonga har tomonlama o'zgarish va yangilanish imkonini berdi. Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar jamiyatimizga, undagi insonlar hayotiga yorug'lik nurini olib kirdi. Turmush tarzini o'zgartirib yubordi.

Demak, mamlakatimizning umid uchqunlari bo'lmish yoshlarimizning ma'naviy, intellektual ongi, tafakkuri ham bir qadar o'sdi.

Bilimdonlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Ulug' shoir, bebaho adabiyotimiz dahosi hazrat Alisher Navoiy inson umrini maftunkor tabiatning to'rt fasliga taqsimlab, umr faslining navbahorini yoshlik deb ataganlar. Bu bejiz emas, albatta.

Yoshlik davridayoq ayrim muhim qarorlarni qabul qilishga to'g'ri keladi. Jumladan, kasbni to'g'ri

tanlash. Maktabni tark etayotgan har bir yoshlarning oldida turgan eng katta muammodir.


Qanday kasbni tanlasam ekan, deya o'yga tolamiz. Ammo bir to'xtamga kelish juda qiyin bo'ladi.

Gohida ayrim yoshlar bu masalani ota-onalarining amri ila bajo keltiradilar. To'g'ri, ota-onaning maslahatiga ko'nmoq biz farzandlarning burchi. Biroq bizga ma'qul bo'lmagan sohani egallashimiz to'g'rimikan?

Aziz yoshlar! Keling, qalbimizga quloq solaylik-da, sevgan kasbimizni tanlashga harakat qilaylik.

Nargiza UMAROVA,
Toshkent shahar,
Hamza tumanidagi
226- maktabning
11- «A» sinf o'quvchisi.

UYIMIZ QUVONCHI



Biz oilada to'rt nafar qiz edik. Jajji ukajonim dunyoga keldi-yu uyimiz quvonchga to'lib ketdi. Endi mening ham ukajonim bor! Unga Abu Bakr deb ism qo'ydik. Kundan kunga bo'y cho'zib, shirin-shirin qiliqlar chiqarayotgan ukajonimni bir ko'rsangiz edi. U oilamizning quvonchiga aylangan. Ishdan horib kelgan dadam

XATLAR TEGIRMONI



uni bag'irlariga bossalar, hamma charchoqlari chiqib ketadi. Oyijonim ham ukamni erkalatib, kelgusida yaxshi inson bo'lib yetishishini orzu qiladilar.

Robiya ORTIQOVA,
Toshkent shahar, Akmal Ikromov
tumanidagi
193 - maktabning
7 - «V» sinf o'quvchisi.

MEN BIR QIZNI BILAMAN

Go'zal ismli bir qizni taniyman. Juda ajoyib, aqlli, tirishqoq qiz. Barcha tengdoshlari kabi yozgi ta'tilni maroqli, mazmunli o'tkazishga harakat qilyapti. O'zbekiston radiosi «Kelajak tongi» eshittirishi qoshidagi to'garak ijodkorlaridan biri. Orzulari yo'lida izlanib yashaydi. Maqolalar, hikoyalar, she'rlar yozadi. Eng katta orzusi - suhandon bo'lish. Biror mavzu yuzasidan yuzaki emas, balki chuqur o'ylab, teran fikrlaydi. Maqola va xabarlar tengdoshlarini baxsga, munozaraga chorlashi ham shundan bo'lsa kerak. Ayni paytda A.Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyining 9 - sinfida tahsil olayotgan Go'zalxonning kelgusida o'z yo'nalishiga, o'z so'zi, qalamiga ega ajoyib radio jurnalist bo'lib kamol topishiga biz ham tilakdoshmiz.

Nargiza RIXSIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Zangiota
tumanidagi 3 - maktabning
9 - «A» sinf o'quvchisi.

YORDAMCHIM DEYDILAR

Bobom ko'p yillar maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaganlar. Hozirda esa keksalik gashtini surmoqdalar. Shunday bo'lsa-da, sira tinib- tinchimaydilar. Bobom bilan birgalashib chorbog'imizga boramiz. U yerdagi ekinzorlarni parvarishlaymiz. Bulg'or balg'arini uzishda, sabzini o'tashda bobomga ko'maklashaman. Daraxtlarni butashda ham ularga yordamchiman.

Dam olayotgan vaqtimizda bobom menga qiziq- qiziq voqealardan so'zlaydilar, hikmatli gaplardan aytadilar. Xullas, bobom bilan bo'lgan har bir kunim menga olam- olam quvonch baxsh etadi.

Ilyos ORTIQOV,
Buvayda tumanidagi
1-maktabning
4-«A» sinf o'quvchisi.

tarbiya qilganlar. O'zlari o'qituvchi bo'lsalarda, kechalari uxlamay kiyim tikib, topgan pullarini farzandlarini o'qimishli qilishga sarflaganlar. Mening shunday ajoyib dadajonimni tarbiyalab, voyaga yetkazgan buvijonimdan behad minnatdormiz. Ularning quyosh taftidek issiq mehlari, metindek mustahkam irodalari, sadoqatlari qarshisida bosh egaman.

Bobom, buvim kelsalar, uyimiz nurga to'lib ketadi. Oyijonimning aytishlaricha, ular bizning davlatimiz, xonadonimizning farishtasi ekanlar. Oyimning dadalari Rahimov Yo'ldoshxoji bobom juda mehribon, bag'ri keng va shirinso'z insonlar. Ularni nafaqat biz nabiralari, balki mahallaning katta-yu kichigi yaxshi ko'rishadi. Bu yil bobom bilan oyijonim Xaj ziyoratiga borib qaytdilar. Ularni ziyorat

BOBOM, BUVIMI KEKSALAR

qilib, duolarini olishga kelgan odamlarning ko'pligini bir ko'rsangiz edi. Bobojonim ularni iliq qarshilab, haqlariga duo o'qidilar. Ularning nur yog'ilib turgan chehralariga boqib, shunday insonlarning nabirasi ekanligimdan faxrlanib ketaman.

Dadamning onalari bo'lmish Isroilova Ma'mura aya ham menga aziz va ardoqli buvi bo'ladilar. Shu kunlarda ularning ham tavallud kunlari, 60 yoshni qarshilayaptilar. Buvijonim yolg'iz o'zlari 5 nafar farzandni



Bobojonim va buvijonimga tilaklarim bir olam: biz nabiralari baxtiga sog'-salomat yurishsin. Yillar o'tib, o'zlari haqidagi she'r va maqolalarimni katta-katta kitoblarda o'qishsa, mening eng ezgu niyatim ijobat bo'lgan bo'lardi.

Saida AZLAROVA,
Shayxontohur tumanidagi
316 - maktabning
4 - «G» sinf o'quvchisi.

Biz bolajonlar yurtimizning erkasi, ertasi, kelajagimiz. Shuning uchun ham o'qib-o'rganishimiz, miriqib dam olishimiz, salomatligimizni tiklashimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan.

Yaqinda Germaniyaning «Freden shtoren interneshnl» xalqaro tashkiloti vakillari yurtimizda mehmon bo'lishdi. «Sog'lom avlod» markazida bo'lib, u yerda davolanayotgan nogiron bolalar va ularning ot-onalari bilan

suhbatlashdilar. Mehmonlar tashrif davomida xayrli bir ishga qo'l urdilar: turli

OMON QAYTING, DO'STLARIM!

sabablarga ko'ra mayib-majruh bo'lib qolib, nogiron bolalar internatida davolanayotgan 20 nafar o'g'il-qizga Germaniyaning eng yirik shifoxonalarida davolanishlari uchun yo'llanmalar berdilar. Ularni topshirish marosimida

bolajonlarning ko'zlarida beixtiyor yosh qalqidi. Bular sevinch yoshlari edi.



- Bu bolalar bizning mamlakatimizda davolanib, tez orada ona yurtlari, yaqinlari bag'riga sog'salomat qaytadilar, - deb umid-la ishonch bildirdi tashkilot Prezidenti.

Uzoq yurtlarga shifo izlab ketayotgan tengdoshlarimga oq yo'l tilab, oy borib, omon qaytinglar, deyman.

Nigora ESHIMOVA,
Toshkentdagi arab
tiliga ixtisoslashgan
29 - o'rta maxsus
maktabning
7 - «V» sinf o'quvchisi.



G'ayrat aka Ochilov rahbarlik qiladilar. Murabbiyimiz Husniddin aka Baratov yosh bo'lsalar-da, tennis sirlarini juda puxta o'rgatadilar. Men ularga astoydil havas qilaman. Qaniydi ustozimdek mohir sportchi bo'lolsam...

Jamoamiz juda ahil, bir-birimiz bilan aka-opadek bo'lib ketganmiz. Bo'sh vaqtlarimizda o'zaro suhbatlashib, o'yin davomida yo'l qo'ygan xato va



kamchiliklarimizni muhokama qilamiz. Muvaffaqiyatlarimizni o'rtoqlashamiz. «Zukkolar bahsi»ni uyushtiramiz. Issiqlab ketsak, sport majmuamizdagi

basseynga cho'milgani boramiz.

Ustozimiz bilan qiladigan davra suhbatlarimiz juda maroqli o'tadi. U kishi har birimizga alohida e'tibor bilan qarab, dildan suhbat quradilar. Irodali, chidamli bo'lishga o'rtgatadilar.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu to'garakka a'zo bo'lganimdan juda xursandman. Ham sog'lom bo'lib kamol topyapman, ham maroqli xordiq chiqaryapman.

Niyatim, bunday ajoyib maskanlar soni ko'paysin. Aminmanki, tengdoshlarim ularga bajonidil qatnaydilar.

Dildora IBRAGIMOVA,
Termiz shahri.

Keling tanishaylik! Mening ismim Dildora.

Termiz shahridagi 1 - umumta'lim maktabining 7-«A» sinfida o'qiyman. Aziz tengdoshlarim, sizlarga yozgi ta'tilni qanday maroqli o'tkazayotganim haqida hikoya qilmoqchiman:


O'tgan yili shahrimizdagi «Alpomish» sport kompleksida «Yosh tennischilar» to'garagi tashkil qilingan edi. Men ham shu to'garakka a'zoman. Oyimning aytishlaricha, tennis bilan shug'ullangan o'g'il-qizlar sog'lom, baquvvat bo'lishar, yana qomatlari ham raso bo'larkan. To'garagimizga

USTOZ, SIZGA HAVAS QILAMAN





Sog' yurak - tog' yurak




Mustaqilligimiz bizga o'zbek tennisini rivojlanishiga katta yo'l ochib berdi. Istiqloq sharofati bilan serquyosh mamlakatimizni jahon taniydi. Biz jahon, qit'a chempionatlari, olimpiadalari va Osiyo o'yinlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdik. Keyingi 10 yil ichida o'zbek tennisi tiklanishi jarayonidagi mashaqqatli yo'lni bosib o'tib, Mustaqilligimizni 11 yilligiga o'zining munosib tuhfalari bilan kelmoqda. Toshkent shahrida o'tkazilayotgan Prezident kubogi ATR seriyasidagi jahonning 32 mamlakatida o'tkazilayotgan 71 turnirning biridir. «Sanex Wta Tou Toshkent Oupen», -deb rasmiy sifatda nomlangan ayollari musobaqasini Toshkent shahrida o'tkazilishi tennis ishqibozlarini ishonchini, umidini oqladi.

tutishni biladilar. Hatto o'z nomlarini ham mashhur tennischilar nomlari bilan yuritadilar. O'zlari sevgan mashhur tennis ustalariga o'xshashga har tomonlama harakat qiladilar. Musobaqa so'nggida ular o'z mahoratlariga loyiq

3-o'rin esa 71-maktabning 6-sinf o'quvchisi Timur Jangirovga nasib qildi. U ham Maqtoov yorlig'i va 3000 so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. Turnirda ko'plab tennischilar ishtirok etdilar. Marhamat, kuchli 10 likka kirgan tennischilarimiz bilan tanishing. Ular- Sergey

YOSH, BARKAMOL AVLOD YUTUQLARI



ravishda mukofotlar bilan taqdirlandilar. 1-o'rinni olgan Mushtariy Nasriddinova Maqtoov yorlig'i va 5000 so'm bilan taqdirlandi.

2-o'rinni 2-sinf o'quvchisi Kan Maksim egalladi. U ham Maqtoov yorlig'i va 4000 so'm bilan taqdirlandi.

Medvedovskiy, Shaxnoza Kariyeva, Hafiz Nasriddinov, Po'lat Bobojonov, Shoxruh, Xumoyun Abdullayev edilar.

1 - sinf o'quvchisi Xumoyun Abdullayev va 6 yoshli Zarnigor tennischilar ichida eng yoshi bo'lishlariga qaramay turnir davomida oliy o'rin ololmagan bo'lsalar-da, shu turnirda qatnashganliklarining o'zi yetarli ekanligini aytib o'tdilar. Hali hammasi oldinda. Biz qo'ldan kelgancha harakat qilamiz. Kelajakda individual mahorati juda yuqori toifali tennischi bo'lib yetishamiz, - deb va'da berishdi. Yosh tennischilarimizga kattadan-katta muvaffaqiyatlar va orzulari armon bo'lmasligini tilab qolamiz. Qolaversa yosh, barkamol avlod mamlakat taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Zero, aqlan va jismonan komil farzandlari bor yurtning kelajagi buyukdir.

Shodiya ABDULLAYEVA,
Poytaxtimizdagi
274 - maktabning
11 - «A» sinf o'quvchisi.

24 iyundan 28 iyungacha O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi MXSK klubida tennis bo'yicha kichkintoy yopiq chempionati bo'lib o'tdi. 4 kun davomida 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan kichkintoy tennischilar o'z kuchlarini kortlarda sinab ko'rdilar. Turnir boshida saralash o'yinlariga qur'a tashlandi. Ilk uchrashuvlardayoq peshqadam tennischilarimiz o'z o'rinlarini mustahkam egallay boshladilar. Bu turnirga bosh murabbiy G'anisher Rahmatullayev, tennis murabbiylari: Asya Gariyeva, Jahongir Sayfullayev, Andrey Revchin boshchilik qildilar. Turnir juda qiziqarli, haqqoniy, muvaffaqiyatli o'tdi desa'm to'g'ri bo'ladi. Shunisi quvonarliki, uchrashuv hakamlari qilib bolalarni o'zlari saylandilar. Bu holat yosh kichkintoy tennischilarimizni «Katta tennisni» mukammal o'zlashtirayotganlaridan dalolatdir. Turnirdan asosiy ko'zlangan maqsad, ularning ichidan eng kuchli 10 talikni ajratib olishdir. Bo'lg'usi chempionlarni ko'rib lol qolasan kishi. Hozirdanoq ular tennis maydonlarida o'zlarini qanday

Kitob o'qishni unutmadingizmi?

Biz do'stlar bilan kelishib, uyimizda kichkinagina kutubxona tashkil qildik.

Ayni kunlarda u yerda yuzdan ortiq kitoblar bor.

Kutubxonaga a'zo bo'layotgan o'quvchilar soni kundan-kunga oshib borayapti. Ulardan Sa'dulla Xojimurodov, Avaz Akbarov, Axmed Oxunov, Mansur Abduhamidovlar shu kungacha anchagina kitoblarni mutolaa qilishga ulgurishdi.

Ular nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti durdonalaridan ham

bahramand bo'lishyapti.

Bundan

tashqari,

kutubxonamizda gazeta va

jurnallarning yangi-yangi

sonlari ham bor.

O'quvchilar bimalol

gazeta va jurnallardagi

maqolalar bilan

tanishib

chiqishlari

mumkin.

Ta'tilda bo'sh vaqt ko'p bo'ladi. Bu vaqtlarni to'g'ri tashkil qilish esa har birimizga bog'liq. Qancha ko'p kitob o'qisak, shuncha bilimimiz ortib boradi. Buni sira unutmaylikda, kitob o'qishga bel bog'laylik.


Dilshod G'OFUROV,

Shayxontohur

tumanidagi

169- maktabning

7- «A» sinf o'quvchisi.



Yozning jazirama issiq kunlari, bolajonlarning ta'til kunlari ham o'tib bormoqda. So'lim oromgohlarda dam olib qaytgan tengdoshlaringiz nimalar bilan bandlar, bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayaptilar, maktabga qanday tayyorgarlik ko'ryaptilar? Bu haqda ularning o'zlaridan eshitaylik-chi:

Kamola SOBIROVA:

- Men Akmal Ikromov tumanidagi 116 - maktabning 6 - sinfiga o'tdim. Ta'til davomida turli to'garaklarga boryapman. Uyda ko'p ishlarni o'zim qilaman, oyijonim

yozi ta'tilim zo'r o'tmoqda. Oila a'zolarim bilan bir necha kun tog' yon bag'rilarida dam olib keldim, lekin o'zimni oromgohga ishonishmadi. Oyimning aytishlaricha, juda sho'xmishman. Lekin o'rtoqlarim bilan ham yomon dam olmayapmiz. Ertalabdan kechgacha ko'chada o'ynayman desam, xato bo'lmaydi. Ha, bu bola o'yinqaroq ekan, deb o'ylamang, kitob ham o'qiymen. Faqat qiziqarli kitobim qolmadi-da...

HAR NARSA

KONGILDAGIDAY BOLSA

xursand bo'lsinlar deb ovqatlarni ham qilib qo'yaman. Bu yil oromgohga bora olmadim, shunday bo'lsada, foydali va unumli dam olmoqdaman. Maktabimni sog'indim, bu yil faqat a'lo baholarga o'qishni niyat qilib qo'yganman. Ha, aytgancha, yodimdan chiqay debdi, men yana ingliz tilini ham o'rganyapman.

Olimtoy OBIDOV:

- Poytaxtimizdagi 203 - maktabning 2 - sinfiga o'tdim. To'g'risini aytsam,

- Meni otim Boho - dedi, uyalibgina uning yonidagi bir bolakay. Bu yil 1-sinfga boraman. Maktabda mahalladagi hamma bolalardan ham zo'r o'qiymen. Ta'tilga chiqib, miriqib dam olaman...

Aziz bolajonlar, sizning ta'tilingiz qanday o'tyapti? Nimalar bilan bandsiz, nima o'rganyapsiz, qayerlarga bordingiz? Shular haqidagi maktublaringizni kutib qolamiz.

Shahlo MUTALOVA tayyorladi.

NIYAT XOLIS BO'LSA...

Men kelajakda suxandon bo'lishni orzu qilaman. O'zbekiston nomi tillarda doston bo'lsa, deyman. Yurtimizning boy madaniyatini, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini chet elliklarga tanishtirishni maqsad qilib qo'yganman. Bu kasbni egallashga astoydil intilyapman. Men shu kunlarda ingliz tilini mukammal o'zlashtirmoqdaman. Menga suxandonlik sohasidan o'z maslahatlarini berib, bu kasb sirlarini o'rgatib kelayotgan, «Sezam» radiosida ish faoliyatini olib borayotgan Sardorbek Rahimovga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Kelajakda albatta o'z maqsadim sari olg'a intilaman. Mustaqil yurtimizning yuksalishiga o'z hissamni qo'shaman. Va albatta, kelajakda o'z kasbining mohir ustasi degan nomga erishishga harakat qilaman.

Otabek TOJIBOYEV,

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 144 - maktabning

7 - «A» sinf o'quvchisi.

QOVOQVOYNING

(2 pardali, 7 ko'rinishli ertak. Yangi varianti.)

O'rgimchakkana:

Qay biri
landavurroq,
Shunga qo'yinlar
tuzoq.

O'z ichidan yov
toping,

O'z ichidan ov
toping.

Chigirtka:

Landavuri
Qovoqvoy,
Bir ish chiqar,
hoynahoy.

O'rgimchakkana:

Ishda aniqlik lozim,
Bajaruvchi bormi, kim?!

Chigirtka:

Bunaqa ish xususda
Ko'sak qurti ko'p
usta.

Yashirincha yuradi,
Yaxshi reja quradi.

O'rgimchakkana:

Olishdan avval
qo'lga,
Solib ko'ringlar
yo'lga.

Ko'sak qurti:

Birgalikda bajaraylik,
G'orga olib boraylik.

O'rgimchakkana:

Kim ko'rinsa,
bekorga —
Olib bormanglar,
g'orga,
Sirimiz bo'lar oshkor,
Gapim tagida gap
bor.

Har qachon bo'ling
puxta,

Yovga solasiz no'xta.
(O'rgimchakkana
chiqib ketadi. Boshqa
hasharotlar
alanglashadi.

Qarashsa, yana
Dehqon bobo boshliq
hamma Qovoqvoyga
gap uqdirib
kelishmoqda, ular
qochib qolishadi.)

G'ujumoy:

(Yalinib.)

Qovoq, o'ynay qol bir oz.


Qovoqvoy:

(Zarda qilib.)

O'yinimga yo'q asos,

Dehqon bobo:

Tushibdi Qovoq labi,
O'tgan yildagi kabi —
Yo qoldimi sinfda?

**Qovoqvoy:**

Sira undoq emas-da.

Dehqon bobo:

Kasalmikan bo'lmasa?

Tarvuz:

Ham dangasa,
Bemaza.

Qovoqvoy:

(Jahli chiqib.)

Dangasaman, bemazaman,
Qovoqman.

Kallam sira ishlamaydi —
ahmoqman.

Dehqon bobo:

So'zingda bo'lsa tayin,
Gapirgin eshitayin.
Barchasi ayqash-uyqash,
Unaqa bo'lma tajang.

G'ujumoy:

U sinfda qolgan yo'q,

Dehqon bobo:

Yaxshi bola ko'nglim to'q.

G'ujumoy:

Muallim debdi shunday:
Ta'tilda sanqimay,
O'rgansang karra jadval,
Debdi ishing bo'lar hal.

Qovoqvoy:

Bo'lmasa-chi, buni qarang,
Men sinfda qolarmishman.
O'zim tugul boshqani ham

Xijolatga solarmishman.

Dehqon bobo:

Do'stlarga yaxshi gapir,
Yordamga tayyor axir!
(Erkalaydi)

Qovoqvoy:

Aytsam agar ochiqroq;
Yalingim kelmas biroq.

Dehqon bobo:

Yalinma, qil iltimos,
Bu do'stlikka tushar mos.



Tayinlay Chanoqvoyga,
Qoldirmayin bir oyga
Karra jadvalni esa,
O'rgatib qo'yar rosa.

Qovoqvoy:

U mendan kichkina-ku,
O'rgata olarmi u?

Qovunjon:

Aql yoshdamas, boshda.

G'ujumoy:

Sening xayoling boshqa,
Yordam beray desa kim
O'zing qochasan doim.

Dehqon bobo:

Baxting bor-da Qovoqvoy,
Kelib qoldi Chanoqvoy.
Tuzalay desa, kasal
Tabib kelarkan jadal.
(Chanoqvoy kirib kelib
hammaga salom beradi.)

Qovoqvoy:

Bilsang kasal emasman,
Uncha o'sal emasman.

Chanoqvoy:

Ishlaring qalay o'rtoq?

Dehqon bobo:

Ishi bir oz chatoqroq.

O'rgatsang karra jadval,
Ishi bo'lar ekan hal.

Chanoqvoy:

O'rgatgin desa qachon,
O'rgataman oppa-oston.

Qovunjon:

Eshitding-mi ey, Qovoq,
Do'stlik bo'ladi bundoq.

Qovoqvoy:

O'rganding deya kimdan
Hamma kular ustimdan.
Rosa izza bo'laymi,
Kuyib jizza bo'laymi?
(Dehqon bobo qo'l siltab,
chiqib ketadi.)

Tarvuz:

Esingni yeganmisan,
Kichkinamas, juda zo'r.
Nega qilmaysan pisand,
Bo'lmasa kurashib ko'r.
(Qovoqvoy boshini ushlab
o'ylab turib.)

Qovoqvoy:

Bo'pti, kurashib ko'ray,
Ko'tarib yerga uray.
Kuchimni bir chog'lasam,
Mendanmas majag'lasam.
Mayib qilsam-chi agar,
Men emasman javobgar.
(Ikkalasiga belbog'
boylatishadi. Kurashga
tushadilar. Qovoqvoy
yiqiladi.)

Handalak:

(Sakrab.)

Chanoqvoy mitti,
Qovoqni yiqdi.
(Qaytaradi, Qovoqvoy
turmaydi).

Qovunjon:

Nima bo'ldi, tur, o'rtoq,
Mazza ekanmi tuproq?
(Qovoqvoy o'zidan ketib
qolganga o'xshab
yotaveradi.)

Tarvuz:

Qovoqvoy o'rningdan tur,
Yiqitganimga uzr.

G'ujumoy:

(Tekshirib ko'radi.)

Qovoqning holi og'ir
«Tez yordam»ga chop
hozir!



SARGUZASHTI

Po'lat MO'MIN

(Hamma uni o'rab oladi,
suv sepishadi, o'ziga
kelmaydi. Daraxtdagi
telefon trubkasini olib,
telefon qiladi.)

Handalak:

«Tez yordam»u, «Tez
yordam»,
Biz tomonga kel ildam.
Adresimiz: Paxtazor,
Bir yonida tokzor bor.
Shu yerda yotar kasal,
Ahvoli ancha o'sal.
Yo'q, hasharot
chaqqanmas,
Yaxshi urmoqda yurak.
Ha, ha, ukolmi? Kerak!
Ketmang uzoq, bedarak,
Mening ismim Handalak.
(Qovoqvoy o'rnidan
turolmaydi. Hamma atrofida
mashina kelayotganini
bildirish uchun tez
aylanadi. Qovoqxola paydo
bo'ladi).

Qovoqxola:

Dod, tushimmi, o'ngimmi?
Kimlar urdi o'g'limni?
Voy qayoqqa chopaman,
Zo'rni qanday topaman.
(O'g'li onasini tanib
yotaveradi. Boshqalar bu
paytda qochib qolishgan
bo'ladi. Ba'zilar atrofda
ko'rinib turishadi).

Ko'zingni och, oppog'im,
Yolg'izginam, Qovog'im.
Qanday chiday alamga,
Kun berishmas bolamga.
(Xola o'rnidan turib bir
chetda turgan G'ujumoyga
tashlanadi. U qochadi).

G'ujumoy:

Men emasman, ey, xola,
Kurashgan boshqa bola.
Taruuz bilan kurashdi,
Biroz belni burashdi.

Qovoqxola:

Qani menga shu fursat,
O'sha zo'ringni ko'rsat.
Kuchlarini sinashgan,
Yolg'izimni qiynashgan,
Ahvolini qaragin,

Majag'lashibdi jag'in.
(Mashina ovozi keladi.
Taruuz, Qovunjon,
G'ujumoylar yugurib
kelishadi, sahnani aylanib
chiqishadi. Sahnaga sumka
va bir quloqli shprits
ko'targan Lavlagijon bilan
Oysholg'omlar kirib
kelishadi).

Oysholg'om:

Yalpisiga, assalom!
Doim bo'linglar sog'lom.



Xizimatingizga keldik,
Yo'l bo'ylab rosa yeldik.
Lavlagijon:
«Tez yordam» doim tayyor,
Ming bir xilda dori bor.
Aytsam gapning ochig'i
Bor chuchugi, achchig'i.
Kasallarni sog' qilar,
Ko'ngillarni chog' qilar.
(Biri sumkasini ochadi,
biri shpritsni sozlaydi. Buni
ko'rgan Qovoqvoyning



yuragi taka-puka bo'la
boshlaydi. Unga
yaqinlashib kelishadi.
Qovoqvoyning oyisi ham
cho'chib boshlaydi, bolasini
bag'riga bosib oladi.
Ko'zlari olayib ketadi).

Oysholg'om:

Cho'chimasin hech kasal,
Ukol misoli asal.

Lavlagijon:

Kasal kim-da, bilaylik?
Darhol yordam qilaylik.

Qovoqxola:

(Cho'chib.)
Tuzalib qoldi u sal,
Men emas, o'g'lim kasal.
(O'g'lini tashlab o'zi
gocha boshlaydi. O'g'li
onasining etagidan ushlab
qoladi. U tortadi, o'g'li
qo'yib yubormaydi. O'g'lini
tortib birga qochishadi.
Ularning ketidan vrachlar
shpritsni o'qtalgancha
quvlayshadi, yana sahnaga
kirishadi, dodlab
qochishadi. Tarvuz,
Qovunjon ham,
Chanoqvoylar ham birga
qochishadi. Aralashib
ketishadi. Birdan
O'rgimchakkana to'dalari
Qovoqvoyning ikki tomondan
tutib olishganda onasi
bolasini tashlab, o'zi qochib
qoladi).

(PARDA)

(IKKINCHI KO'RINISH)

(Allaqanday tashlandiq
g'or. Teparoq joyda
podshohlarga o'xshab
O'rgimchakkana o'tiribdi.
Atrof o'rgimchak uyalari —
to'rlari. Sakrab-sakrab
Chigirtka kiradi).

Chigirtka:

Janob O'rgimchakkana
Huzuringizga mana —
Muntazirmiz erta-kech.

O'rgimchakkana:

Bunaqa demangiz hech
Degandim necha marta,



Tag'in aytsang agarda
Osaman oyog'ingdan.

Chigirtka:

Kechiring,
qulog'imdan
Chiqib ketibdi bir oz.
Eslatdingiz, juda soz.
Buyurganingiz, janob,
Eshikda turar shu tob.

O'rgimchakkana:

Oshkora bo'lmasin sir,
Mayli keltir,
Birma-bir.

Chigirtka:

O'zi bitta-ku taqdir.

O'rgimchakkana:

Ha, mayli qani ko'ray,
Shoshma to'rimni

o'ray.

(O'z to'riga bekinib
oladi va o'rtada
Qovoqvoyning boshlab
Ko'sak qurti,
Chigirtka kiradilar.
Qovoqvoyning ko'zi
bog'lab qo'yilgan
bo'ladi. Ko'sak qurti
asta uning ko'zini
ochadi).

Qovoqvoy:

(Hayron)

O'ynaymizmi shu
yerda,
Pasqam joy,
Ekan-ku, voy,
O'ynagan yaxshi
qirda.

(Ko'zini ishqalab.)

Nega Chigirtka,
Olib kelibsan chetga.
Qanaqa joy o'zi bu,
Hammayoq qop-
qorong'u?

(Davomi bor.)

«IJODKOR»NING SIRI OCHILDI

Adabiyotga, she'riyatga mehr qo'yib, qog'oz qoralab yurgan tengdoshlarim talaygina. Bu juda yaxshi albatta. Guruch ham kurmaksiz bo'lmaganidek, oralarida soxta «ijodkor» lar ham uchrab turgani kishini ranjitadi.

Sinfimizda M. ismli (ismini to'liq yozmay qo'ya qolay) bir qiz bor. O'quv yilining so'nggi kunlaridan birida «o'zim yozdim» deya bir she'r o'qib berdi. She'ri bizga ham, ustozimizga ham juda yoqdi...

Oradan ikki kun o'tgach, televizor orqali bir tartiqli shoiraning o'qiyotgan she'ri diqqatimni tortdi. Bu she'rni qayerdadir eshitgandek edim. Esladim, sinfdoshim M. o'zimga deb o'qib bergan she'ri ekan. Bu ko'rsatuvni boshqa sinfdoshlarim ham ko'rishgan ekan. Maktabga kelgach, bor gapni M. ga aytib berdik. U esa pinagini ham buzmay: «Tunov kuni bir ayol telefon qilib, menga she'ringni berib tur, degandi, bergandim» desa bo'ladimi?! Biz uni sinash uchun, qofiya, vazn degan narsalarni tushunasammi, deb so'radik. U esa «bilmayman» deya yelka qisib qo'ydi xolos. Shu tariqa «ijodkor qiz»ning siri fosh bo'ldi.

*Durdona AVAZOVA,
Toshkentdagi
85 - maktabning
7 - «A» sinf o'quvchisi.*



YOSH TIJORATCHILAR

Biz shahrimizdagi «Karvonsaroy» bozoriga yaqin joyda yashaymiz.

Yaqinda oyijonim bilan o'quv qurollari sotib olish uchun bozorga tushgandik. Katta-katta aravalarni itarib ketayotgan, sharbat va muzqaymoqlar sotib o'tirgan



tengdoshlarimning ko'pligini ko'rib hayron qoldim. Achinarlisi shundaki, ayrimlarning og'zidan chiqayotgan gap-so'zlarni eshitib, uyatdan naq yerga kirib ketay dedim. To'g'ri, oralarida pul topib, ota-onalariga ko'maklashayotganlari ham yo'q emas. Lekin ba'zi bolalar bilan suhbatlashganimda, ishlab topgan pulimga billiard o'ynayman, saylgohlarga boraman, qisqasi, o'zim nima qilsam qilaman-da, deb javob berganlari ham bo'ldi.

Ularning javoblari meni o'ylantirib qo'ydi. Axir ta'til degani faqat cho'milishu dam olish degani emas-ku. Kechgacha bozorlarda laqillab yurguncha biror kasb-hunar o'rganishsa, badiiy kitob o'qib, ma'naviyatlari boyitishsa bo'lmaydimi?!

Siz nima deysiz, aziz tengdoshlarim?

*Dildora EGAMBERDIYEVA,
Toshkent shahar, Akmal
Ikromov tumanidagi 312 -
maktab o'quvchisi.*



Sinfimizda Marhabo ismli aqlli, odobli bir qiz o'qirdi. Biz u bilan yaqin dugona edik. Bir kuni Marhabo maktabga xafaroq bo'lib keldi. Sababini surishtirsam, dadasining ishi yuzasidan boshqa shaharga ko'chib ketishayotgan ekan. Shu kuni mening ham

kayfiyatim juda yomon bo'ldi.

Nihoyat, o'sha kun keldi.

chiqdim. Maktabga ham borgim kelmay qoldi. Xuddi bir qimmatbaho narsamni

xabar ham bo'lmadi. Qo'ng'iroqlarimga esa doimo, uyda yo'q edi, degan bir xildagi javobni olaverdim.

Marhabo balki yangi joyda yangi-yangi dugonalar orttirgandir. Shunday bo'lsada, eski qadrdon dugonasiga ikki og'iz maktub yozsa bo'lardi-ku... Afsuski, do'st tanlashda adashgan ekanman. Do'st deb bilganim...

*Umida
AHMEDXO'JAYEVA,
Mirzo Ulug'bek
tumanidagi
18 - maktabning
7 - «D» sinf o'quvchisi.*

DO'ST DEB BILGANDIM

Ikki dugona bir-birimiz bilan hecham ajrashgimiz kelmasdi. Lekin noiloj, tez-tez telefonlashib turishga, xat yozishishga ahd qilib, xayrlashdik. Shu kuni tuni bilan yig'lab

yo'qotgandek, ko'nglim xijil bo'lib yurdi. Oradan bir necha kun o'tgach, men unga telefon qildim. Aksiga olib, uyda yo'q ekan. Keyin bir necha bor xat yozdim. Javobini intizorlik bilan kutdim. Afsuski, xat ham,



Xayr bog'cha, salom maktab

- Alisher men maktabga chiqaman.

aylandi. Ular ustozlari Muqaddas opa Akbarovadan o'rgangan quvnoq kuy

va qo'shiqlarni zavq bilan ijro etishdi.

SINFDOSHIM BO'LASAN

- Voy, men ham. Sinfdoshim bo'lasanmi?

- Ha. Endi sinfdoshlar janjallashmaydi. Ular do'st, o'rtoq bo'lishadi. Buni tarbiyachi opamiz aytdilar.

Maktabga tezroq chiqishga oshiqayotgan bolakaylar Toshkent viloyati,

Zangiota tumanidagi Xalq ta'limi bo'limiga qarashli «Nilufar» nomli 14- bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilaridir.

Ushbu bog'cha uch guruhdan iborat. Bog'chaga bir necha yildan beri Hikoyat opa G'ofurova rahbarlik qilib kelayaptilar.

Yaqinda bog'chada yuqori guruhdagi bolajonlarning maktabga kuzatish marosimi o'tkazildi. Bu kun bolalar uchun haqiqiy bayramga



Xayrlashuv kechasida bog'cha opalarimiz bilan estalik uchun suratga tushdik.

Ayniqsa, o'zga sayyoraliklar bo'lgan Doniyor va Ilhomlarning chiqishi davraga yanada quvnoqlik baxsh etdi. Ular bolalar bilan savol-javob o'tkazishdi va hozirjavobliklari bilan maktabga tayyor ekanliklarini namoyon etishdi.

Tarbiyachilar -



Bayramimizga o'zga sayyoraliklar ham kelishdi.



Biz «Qashqarcha» raqsga tushdik.

Dilbar Saidazimova, Maktuba Axmedova, Matluba Djamedovalar bolalarni maktabga kuzatar ekanlar, kelgusida tarbiyali, bilimli o'g'il-qizlar bo'lib yetishishlariga umid bildirdilar.

O'z navbatida bolajonlar ham maktabda faqat a'lo baholarga o'qishga, ertaning haqiqiy egalari bo'lishga so'z berdilar.

A.ABDULLAJONOV.

ABADYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

U siyosatchi, tarixchi, huquqshunos, faylasuf, pedagog, sayyoh, diplomat va o'zining behisob homiylariga vassol edi. Ijodda aksari hollarda, hayotda esa hamisha o'zgalarga qaram bo'lib yashadi.

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

tarix va shoirlarni yaxshi bilardim», deb eslaydi o'smir. Leypsig yaqinidagi Rozental o'rmonlariga o'zi bilan gaplashib yuruvchi yolg'iz yigitcha hatto shu holatida ham olis «Sarskoye Selo» qishlog'idagi tengquriga naqadar o'xshash!

17 yoshida Gotfrid matematika bo'yicha jiddiyroq murabbiy izlab, Iyen shahriga kirib boradi. Biroq

uringandek va qay birida biron to'siqqa uchrasa, shu zahotiy oq boshqasiga osongina o'tib ketayotgandek bir taassurot tug'iladi kishida.

Keyingi yili u yana matematikaga

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli

Qirollarning huzuriga bemalol kirib bora olar, ammo hunarmandlar bilan uzoqroq suhbatlashib o'tirardi. Pulni yaxshi ko'rar, biroq xasis emasdi.


Bir umr

so'qqabosh o'tgan. Lekin

xonimlar bilan suhbatlarni jon-dildan yaxshi ko'rardi. Hayotda sog'lig'idan nolimagan, hatto o'limiga ham doridan zaharlanishi sabab bo'ldi, xolos. Bir umrga hamma narsaga qiziquvchi, ammo qiziqishlarini jinoyatkorona bir tarzda sochib tashlagan, havoga sovurgan daho Gotfrid Vilgelm Leybnits cho'qintirilayotgan payti ruhoni qo'liga olganida chaqaloq boshini ko'tarib, ko'zlarini ochgan. Bu hodisada ilohiy belgini ko'rgan otasi etika professori Fridrix Leybnits kundalik daftarida o'g'li ulg'ayganida «ajoyib ishlarni amalga oshirishini» bashorat qiladi. Ammo shu bashoratlari ro'yobga chiqqanini o'zi ko'ra olmay, bola yetti yoshlik chog'ida olamdan o'tib ketadi.

Gotfrid uzzu-kun otasining kutubxonasidan chiqmaydi. Aflotun, Arastu, Tsiseron, Dekart — barchasining asarlarini bir chekkadan o'qib ketaveradi. O'zi bilan bir yilda dunyoga kelgan tengdoshi yosh Pushkin singari u ham ilm- ma'rifat ziyosidan erta bahramand bo'lgan va bir umrga ularning maftuniga aylangan. 15 yoshdayoq Universitet talabasiga aylangan. Lekin «ma'ruzalarni eshitmasimdan oldinoq

NYUTONGA TENGLASHGAN OLIM



qiziqishlari faqat shu bilangina cheklanib qolmagan. U tarix, arxeologiya, huquqshunoslikdan dars oladi.

Olimning biograflaridan biri uning shu davrdagi hayoti haqida: «Leypsig Universitetida Leybnits ilm-fanni mukkasidan tushib o'rganishi bilan o'qituvchilarni ham, o'rtoqlarini ham hayratga solardi», deb yozgan. 2 - kursdayoq Gotfrid dastlabki ilmiy ishini yaratadi. 19 yoshida bakalavrlik darajasini olishga urinadi. Biroq, bunga hali juda yoshligini ro'kach qilgan holda kelib-kelib... dekaning xotini e'tiroz bildiradi!

Bu serqirra yigitcha xudo bergan iste'dodini qanchalik parchalab tashlaganini kuzatishning o'ziyoq og'riqli. U go'yo ilm-fanning barcha sohalarini baravar egallashga

yuz o'girgandek «Kombinatorlik san'ati haqida mulohazalar» asarini yozadi. Biroq, to'satdan Aldorfga ketib qoladi va

o'sha yerda huquqshunoslikka oid tadqiqot yaratadi, huquqshunoslik doktori bo'ladi.

Leybnits Nyurnbergga yo'l oladi. Va endi alkimyoga qiziqib qoladi. Sirli marosimlarda u ham ishtirok etishga yo'l berilishi uchun kimyogarlarga ilmiy atamalar qorishmasidan iborat tuturiqsiz bir maktub yo'llaydi. «Bu xatni muallifning o'zi tushuna olmagan bo'lsa ham Nyurnberg jamiyati a'zolari tushuna olishdi, deya alohida ta'kidlab o'tadi. Aqalli

jumlalarning mavhumligidan maktubni ilmi bag'oyat teran va bu sohada bizdan ancha ustun turgan olim yozgan, deb faraz qilishdi. Leybnits Nyurnbergdan Frankfurtga o'tadi. Shu yerda oshxona asboblarini sharaq-shuruqi va arzon baho mehmonxonadagi mast-alastlarning baqir-chaqirlari orasida huquqshunoslikka oid yirik asarlaridan birini yozadi. Shu yerda yaratilgan «Inson ongi haqida yangi tajribalar» nomli asarida «Biror- bir mashina yordamida Oydan uchib kelishi mumkin bo'lgan» mavjudotlarning haq-huquqlari to'g'risida so'z yuritadi. Yangi fan XX asrdagi fazoviy huquqshunoslik ana shu tadqiqotdan boshlanganmikan?

(Davomi bor.)

Do'sting kimligini aytib ber

Aziz bolalar! Mustaqillikka erishganimizdan keyin dunyo xalqlarining O'zbekistonga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Xorijda jamiyatimiz tarixi, madaniyati, milliy urf-odatlarimiz, adabiyot, san'atimizni beminnat targ'ib qilayotgan necha o'nlab do'stlarimiz bor. Shu fidoyi insonlar orasida Hindistonning taniqli adabiyotshunos olimi, shoir va tarjimon, jamoat arbobi Kamar Rams ham bor.

U bundan qirq yil muqaddam diyorimizga birinchi marta kelgan. U Toshkent Davlat Universitetining, (hozirgi Milliy Universitet) Sharqshunoslik fakultetiga urdu tili va adabiyotidan dars berish uchun taklif etilgan edi. Bungacha u tug'ilib o'sgan- Shoxjahonnur shahrida, Laxnau, Nagnur Universitetlarining talabasi bo'lgan chog'larida O'zbekiston haqida ko'p o'qigan, eshitgan edi. «Hindiston bilan O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar qadimiy va azaliydir,- deydi K.Rams, -Sharq bilan g'arbni asrlar davomida bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li shu mamlakatlar orqali o'tgan. Arxeologik topilmalar, mo'tabar tarixiy manbaalar xalqlarimiz o'rtasida iqtisodiy, madaniy savdo aloqalari qadim-qadimdan davom etib kelayotganidan guvohlik beradi. Buyuk daholar -

Beruniy, Bedil, Amir Temur, Bobur va boshqalar Hindistonda bo'lganlar. Boburiylar sulolasi salkam ikki asr davomida mamlakatimiz ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan. Movoraunnahrdan chiqqan Xo'ja Qutpiddin, Xo'ja Xurshid Nizomiddin, Badir Shoshiy, Mirzo G'olib kabi ulug' insonlarning merosiga hindistonliklar chuqur ehtirom bilan qaraydilar. Toshkentga ilk bor kelganimda o'zimni xuddi ona yurtimda yurgandek his etdim. Universitetda dars berish bilan adiblar, olimlar bilan tez-tez uchrashib, ular bilan muloqotda bo'ldim. G'ofur G'ulom, Shayxzoda, Mirtemir singari taniqli shoirlarning suhbatlaridan bahramand bo'lganman». Shoir, hindistonlik «O'zbekistonda» deb nomlangan she'rida uning ikkinchi vatani bo'lib qolgan yurtimizda har qadamda, har go'shada uni oftobday do'stlik tafti chulg'ab olganini shunday tasvirlagan edi:

**Boshimda nur, lekin ko'kdan sochilgan emas,
Ona tuproq baxsh etgan bir ganji muqaddas.
Bu bir nurki, odamizod qalbining ekan,
Bu bir nurki, shodliklarning dilrabo raqsi.
Rostin aytsam, musofirman bu yashnar elda,
Ammo hech vaqt yolg'izlikni his etmam dilda,
Atrofimda tabassumli yuzlar hamrohim,
Atrofimda tabassumli ko'zlar hamrohim.
Har bir ko'zda mehr boru tugalmas qo'shiq,
Barchasi der: «Do'stlar uchun eshiklar ochiq».**

Adabiyot dillarga, xalqlarni xalqlarga bog'lab turuvchi oltin ko'prikdir. K.Rams salkam sakkiz yil davomida o'zbek

adabiyotini mehr bilan o'rgandi. Uning maftuni bo'lib qoldi. Hind xalqlari O'zbek adabiyoti durdonlari bilan tanishtirishga bel bog'ladi. Dastavval taniqli o'zbek shoiri G'ofir G'ulomning sara she'rlarini urdu tiliga tarjima qilib, «Toshkent armug'oni» nomi bilan chop ettirdi. Taniqli adib Sharof Rashidovning «Kashmir qo'shig'i» qissasini urdu tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Bu asar Hindiston va Toshkentda juda mashhur bo'lib ketdi. Vataniga qaytgach, yigirma bob, yigirma beshta o'zbek shoirlarining asarlarini o'z ichiga olgan ikki jildlik «O'zbekiston shoirlari» kitobini nashr ettirdi. K.Rams o'zbek adabiyoti, uning yirik namoyandalari xalq haqidagi samarali ishlarini davom ettirib, Alisher Navoiy va O'zbekiston mamlakatining adabiyoti va hayotiga bag'ishlangan «O'zbekiston» kitoblarini yozdi.

1997 yili K.Rams O'zbekistonga yana tashrif buyurdi. Unga vazir maqomi berilib, Toshkentdagi Hindiston Madaniyat Markazi direktori lavozimiga tayinlangan edi. U to'rt yil davomida markaz o'zbekistonliklar uchun sevimli maskaniga aylanishi uchun butun bilimi, tajribasi, kuch-g'ayratini ishga soldi. Turli milliy bayramlar, yubileylar, uchrashuvlar, festivallar, ko'rgazmalar, ilmiy anjumanlar muntazam o'tkazib turildi. Markazda o'tkaziladigan tadbirlarga hindistonlik yirik olimlar, madaniyat arboblari, san'atkorlar jalb qilindi. O'zbek

Hindiston olimlari,

yozuvchi shoirlar jamoat va

madaniyat

arboblari markazning aziz mehmonlari bo'ldilar.

K.Rams o'zining ilmiy, ijodiy faoliyati bilan avvalo vatanida e'tirof etilgan el hurmatiga sazovor bo'lgan insondir.

«Hindiston ozod bo'lib, Mustaqillikka erishgandan keyin maydonga chiqib, o'z ijodim bilan urdu adabiyoti hazinasini yangi durdonalar

bilan adib va shoirlar qatorida Kamar Rams juda yuksak o'rin egallaydi»-deb yozgan edi S.Zoxir, -U urdu adabiyotini tarixini taqdid etuvchi ko'zga ko'ringan olim va yirik tanqidchidir. Ilmiy ishlari bilan bir qatorda qalbu-ruhidagi otashni his-tuyg'u harakatini ham saqlab qolgan shu harorat tufayli go'zal she'riyat ma'budasiga chin mehr qo'ygan yirik bir shoir hamdir.





K.Rams O'zbekistonda ham o'zbek ziyolilar orasida qayta shuhrat qozongan. 1973 yilda uning she'riy kitobi o'zbek tilida chop etilgan. U Toshkent Davlat Sharq tillari instituti, O'zbekiston badiiy Akademiyasi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutining faxriy a'zosi. Do'stimiz, dilbar inson, Kamar Rams shu kunlarda o'zining muborak yetmish yoshini nishonlamoqda. Uni tavallud topgan kuni bilan chin dildan tabriklaymiz. Unga mustahkam sihat-salomatlik, ilmiy, ijodiy parvozlar, boqiy umr tilaymiz. Qayerda bo'lmasin, O'zbekistonimizga so'nmas mehr-muhabbati jo'sh uraversin.

**Mirzo Anvar KARIMOV,
Tarix fanlari nomzodi.**

BUL BIR YUL...



Bizning to'garak



Ohu yuragiga tegdi yovuz o'q,
Qaro niyatidan ma'lun ko'ngli to'q.
Titradi ona yer, yig'ladi gullar,
Qadam bosishiga intizor yo'llar.

Ohuning ortida jajji bolasi,
Olamni titratdi ohu-nolasi.



Nogahon yuragi nimadir sezdi,
Jovdirab qarashi yurakni ezdi.

Onasin izladi boqib uzoqqa,
Ogoh bo'l ohujon tushma tuzoqqa.
Tanish sas qulog'in ostidan ketmas,
Endi u onasin bag'riga yetmas.

Nargiza IGAMOVA.

BOBOM
SAFAR
BARNOGA

Shoir bobom, donishmand bobom,
Nechun barvaqt tashlab ketdingiz?
Mehrimgizga qona olmadik,
Ko'zlarimiz yoshlab ketdingiz.

«Ona qizim» deya bizlarni,
Erkalatib xo'p suyardingiz.
Betob bo'lib qolsak-chi agar,
Xavotir-la ko'p kuyardingiz.

Kulib turar edi ko'zingiz,
Xikmatga boy har bir so'zingiz.
Ko'z o'ngimdan ketmas bobojon,
Nur yog'ilib turgan yuzingiz.

Nargiza TUROPOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota
tumanidagi 8 - o'rta maktabning
5 - «Ye» sinf o'quvchisi.

ONA TABIAT

Odamlar ham turfa xil olam,
Kim qahrli, kimlar mehribon.
Chin insonlar butun borliqni,
Ko'z nuridek asraydi har on.



Onamizdek aziz tabiat,
Sizu bizdan kutadi najot.
Yaxshi inson yashnatay deydi,
Mehr berib, g'amini yeydi.

Ra'no SOLIBOYEVA,
Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi
16 - o'rta maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.



ORZULARIM

Orzularim tug'yon urib,
Daryo kabi jo'shadi.
Samo ichra qanot qoqib,
Yulduzlarni quchadi.

Orzularim qanotida
Men onamni ko'raman.
Tutib orzum jilosin,
Tilsimlarin yechaman.

Shaxlo UMAROVA,
Yunusobod tumanidagi
Razzoq Hamroyev nomli
288- maktabning
6- «A» sinf o'quvchisi.



«ZO'R ISH»


Akvaryumga Alisher,
Xovuchlab tuz solibdi.
Suzib yurgan baliqlar,
Zumda o'lib qolibdi...

- Dada, dengiz suvining,
Sho'r bo'lishin bilgandim.
Baliqlar yayrasin deb,
Ko'ring, «zo'r ish» qilgandim.

Nilufar MO'MINOVA.



Tengdoslaringiz Mushtariybegim SAYFIDDIN qizi
multfilm qahramonlarini, Qizlarxon YULDOSHEVA esa
«Qoli gul oshpaz»ning rasmini chizib, bizga
yuborishibdi.



KITOB

O'QIGANDA

Salim aka kitobni ovoz chiqarmay, ichida o'qiyotganidan behabar kichkina Abdulla so'radi:

- Voy, dada, o'qiyolmayapsizmi?..

KIM YEYDI?

- Dada, - dedi

Hakimjon bozorga ketayotib, bitta qovun olaylik.

- Olishga olamiz-u lekin uni kim ko'taradi?

- Siz.



- Kim yeydi?

- Men!

O'YNASHMA

Sovuq kunda t a s h q a r i d a o'ynayotgan o'g'liga onasi:

- Hoy bolam, bu

sovuq bilan o'ynashma, shamollab qolasan, - dedi.

Hovlidan o'g'lining ovozi eshitildi:

- Men sovuq bilan o'ynashmayapman, oyi, qor o'ynayapman...

HOZIRJAVOB

NABIRA

- Xo'sh o'g'lim, otning bolasini nima deyishadi?

- Toychoq.

- Qo'ying bolasini-chi?

- Qo'zichoq.

- Sigirning bolasini qanday atashadi?

- Buzoqchoq!

QARAB TURDIM...

- Boqijon, samovarga qarab tur, - tayinladi onasi.

Onasi qaytgach, Boqivoy dedi:

- Oyijon, samovarga qa-rab turdim. U er-ib ketdi...

Feruza OBIDOVA tayyorladi.

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 2 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.



Qadim o'tgan zamonda, Zambil degan tomonda bir shox yashagan ekan. Bir kuni shox uylanmoqchi bo'libdi va o'ziga munosib yor qidira boshlabdi. Bu gapdan xabar topgan jodugar kampir go'zal bir qizga aylanib olib, shoxning huzuriga o'tlanibdi. Qizning husnu jamoliga, sarv qomati-yu orqasida ajdardek to'lg'anib turgan tim qora sochlariga maxliyo bo'lib qolgan shox qirq kecha-yu qirq kunduz Zambil eliga to'y berib, unga uylanibdi.

Oradan bir yil o'tar-o'tmas xotini ikki o'g'il tug'ib beribdi. Shoxning sevinchi ichiga sig'may yana xalqqa osh beribdi. Ularga Botir va Qodir deya ism qo'yishibdi.

Oradan yillar o'tibdi. Botir xuddi otasi kabi oqko'ngil, kamtar va saxiy inson bo'lib kamol topibdi. Shuning uchun ham onasi bu o'g'lini yoqtirmas ekan. Qodir esa xuddi onasidek ichi qora, baxil

bo'lasiz» deya jangga kuzatibdi. Dastlab ularning qo'li baland kelib, yov chekinibdi. Lekin dushman xiyla ishlatgan ekan, pistirmadagi g'anim qurshovida qolishibdi. Qodir


qah urib. Ularning gapini behosdan eshitib qolgan shox dushman qurshovida mardlarcha jang qilayotgan o'g'liga zudlik bilan madad yuboribdi. Botirning jangdan g'alaba bilan qaytayotganini eshitgan kampir Qodirni yarador holatga keltirib, shoxning huzuriga boshlabdi: «O'g'limiz yarador bo'lsa ham mardona

HAQIQAT TANTANA QILDI

va yolg'onchi bo'lib voyaga yetibdi. Bu ham yetmagandek, kampir unga jodugarlikni

qarasa ahvol chatoq, onasidan o'rgangan sehr-jodusini ishga solib, qari

kurashibdi, u taxtingizga munosib voris bo'ladi» deya Botir qaytguncha Qodirni taxtga o'tqazib qo'yishga intilibdi. Lekin bor gapdan xabardor bo'lgan shox jallodni chaqirib, ona-bolani uning qo'liga topshiribdi. O'g'li Botirni esa taxtga o'tqazibdi. Shu tariqa



o'rgatibdi.

Bir kuni yurt boshiga kulfat tushib, yov bostirib kelibdi. Shox ikki o'g'lini ikki katta qo'shinga bosh qilib: «Qay biringiz dushmanni yengib, g'alaba bilan barvaqt qaytsangiz, taxtimning egasi

kampirga aylanib olibdi-da, qurshovdan eson-omon chiqib, saroyga oshiqibdi. Bor gapni onasiga so'zlab beribdi. «Yashavor o'g'lim, boplabsan. Botir jangda o'lib ketsa, sen yagona meros'ho'r bo'lasan» debdi onasi qah-

Zambil eli yana bir odil, adolatli shoxga ega bo'lishibdi.

Nurbek UNGAROV, Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 12 - maktabining 6 - «A» sinf o'quvchisi.



29 iyul

TONG YULDUZI

2002

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



SAVOLLAR

(Chetdagi kvadrat bo'ylab)

(Surat ichidagi)

1. Vazn birligi.
2. O'zbek xalq cholg'u asbobi.
3. Qaytarish belgilaridan biri.
4. Birgalikda kuy va qo'shiq ijro etuvchi ijrochilar uyushmasi.
5. Estrada xonandasining ismi.
6. Yakkaxon bilan xor yoki xor 2 qismning galma-gal qo'shiq aytishi nima deyiladi?
7. Shashmaqomning III-maqomi.
8. Turli cholg'u asboblarda ijro etuvchi sozandalarning katta kolleksiyasi.
9. Mediatr bilan chalinadigan cholg'u asbobi.
10. Alteratsiya belgilaridan birining nomi.
11. Usul.
12. Kichik uchtovushlikka suyanuvchi parda. Mungli va mayin.
13. Maqomlardan birining nomi.
14. Fortepiano yoki organ uchun yozilgan kuy, pyesa.

ENIGA: 20. Nota. 21. Bolalar guruhining nomi. 22. Shashmaqomning ijro etilish yo'llaridan biri. 23. Milliy cholg'u asbobi. 24. Do — re orasidagi interval. 25. Onalar qo'shig'i. 26. Kuy, ohang. 27. Musiqada tovushlarning muayyan balandlikda o'zaro bog'lanishiga nima deyiladi? 28. Urrib chalinadigan cholg'u asbobi. 30. Shashmaqom ilk marta qaysi shaharda vujudga kelgan?

BO'YIGA: 15. Tanburni chalish uchun qo'lga kiyiladi. 16. Ikki tovush oralig'i. 17. ... Rajabiy. 18. Asosiy bosqich. 19. Dinamik belgilardan biri. 29. Nota nomi.

Nigora HUSNIDDIN qizi,
Arab tiliga ixtisoslashgan
29- maktabning 8 - «V» sinf
o'quvchisi.

TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nuxxada ofset usulida bosildi.
Korxona manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-661
Gazetani
Muhabbat MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08

